

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

AKSIOLOGIYA VA QADRIYAT TUSHUNCHALARI TARIXI XUSUSIDA

Jo‘rayeva Bibish,

filologiya fanlari doktori, professor, Davlat tilida ish yuritish asoslarini

o‘qitish va malaka oshirish markazi

Buxoro viloyati hududiy bo‘linmasi rahbari

Sharipova Ozoda

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Ozodaxon925@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda aksiologiya va qadriyat tushunchalarining tarixiy ildizlari haqida to‘xtalinib, qadriyatlarga ijtimoiy taraqqiyot jarayonida ko‘rsatilgan munosabat hamda uning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni bir qator manbalarda berilgan ma’lumotlar asosida qiyosiy-tahliliy o‘rganilgan, xulosali fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: aksiologiya, qadriyat, qadr, qadriyatlar tizimi, qadrlash tamoyillari, qadrlash mezonlari.

Annotation: In this study, the historical roots of the concepts of axiology and value are discussed, the attitude towards values in the process of social development and its place in the life of a person and society are analyzed based on the information provided in a number of sources, comparative and analytical studies are made, and conclusive opinions are expressed.

Key words: axiology, value, value system, principles of valuation, criteria of valuation.

Аннотация: В данном исследовании обсуждаются исторические корни понятий аксиология и ценность, анализируется отношение к ценностям в процессе общественного развития и их место в жизни человека и общества на основе информации, представленной в ряде источников. проводятся сравнительные и аналитические исследования, высказываются окончательные мнения.

Ключевые слова: аксиология, ценность, система ценностей, принципы оценки, критерии оценки.

Insoniyat yaralibdiki, odamlar o‘zlarining u yoki bu ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi, biror faoliyatlarida foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan, muayyan qiymatga ega bo‘lgan narsalarni qadrlab kelishgan. Shu bilan ularning qadriyatiy xususiyatlari ochila borgan. Dastlab buyumlarning amaliy foydasi bilan bog‘langan bu tushuncha keyinchalik boshqa ijtimoiy va ma’naviy hodisalarda ham tan olina boshlandi.

Qadriyatlarning bugungi hayotda tutgan o‘rni va kelajakda kasb etadigan ahamiyatini teranroq anglamoq uchun uning tarixiga nazar tashlash kifoya.

Garchi qadriyatlar bilan shug‘ullanadigan mustaqil falsafiy soha – aksiologiya G‘arbda yaqin o‘tmishda shakllangan bo‘lsa-da, insoniyatga xos qadrlash tamoyillarining qaror topishi, qadriyatlar mavzusining tarixiy ildizlari uzoq o‘tmishga ega. Bu borada G‘arb va Sharq falsafasi

Ilmiy elektron jurnali

o‘z tarixiga ega bo‘lib, G‘arb olimlari, asosan, Yevropa madaniy merosi va g‘oyalariga tayangan holda Suqrot, Aflatun, Arastu kabi ko‘plab allomalarning nomlarini tilga oladilar.

Bu mavzu Sharq, xususan, O‘zbekiston uchun ham uzoq o‘tmishdan bugunga qadar muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan qadrlash mezonlarining tarixi eng qadimgi naqllar, rivoyat-u afsonalar, dostonlarga, bir so‘z bilan aytganda, xalq og‘zaki ijodi namunalariga borib taqaladi. Forobiy, Imom Buxoriy, Termiziyy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Najmiddin Kubro, Yassaviy, Naqshband, Ulug‘bek, Navoiy, Bedil kabi mutafakkirlar ijodida ham Sharqqa xos azалий qadriyatlarning izlarini, uzluksiz zanjirini ko‘rishimiz mumkin. Spitamen, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi haqida yaratilgan asarlarda vatanparvarlik, yurt ozodligi uchun fidoyilik kabi ko‘plab umuminsoniy qadriyatlar aks etgan.

Qadrlash to‘g‘risidagi qarashlarning rivojida VIII–XII asrlar o‘ziga xos muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ma‘lumki, bu davrda arab istilosini natijasida islam dini hukmoning dinga aylangan edi. Qur’oni karim va Hadisi shariflarda keltirilgan diniy qadriyatlar xalqimiz madaniyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Afsuski, xalqimizga xos eng yuksak qadrlash mezonlarini yaratgan o‘rtalarda ko‘tarilish davri temuriylar saltanati parchalangandan so‘ng sekin-asta tanazzulga yuz tuta boshladi. Markazlashgan yirik saltanat o‘rnida Xiva va Qo‘qon xonliklari, Buxoro amirligining vujudga kelishi oqibatida azaldan bir tan-u bir jon bo‘lib yashagan xalqlar o‘rtasida turli nizolar, ziddiyatli kunlar kechdi. Natijada esa bu saltanatlar hukm surgan uch yuz yildan ortiqroq davr mobaynida xalqlarning hamjihatligini ta’minlab kelgan umumiy qadriyatlar tizimiga darz ketib, qadrlash mezonlari ham bir qadar o‘zgara boshlagan.

XIX asrning o‘rtalariga kelib Turkiston hududining chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi, yurtimizning imperiya mustamlakasi bo‘lib qolishi natijasida mustamlakachilarning qadriyatlar xalqimiz orasiga zo‘rlik bilan singdirila boshlandi. XIX asrning oxirlari va XX asr boshlarida vujudga kelgan jadidlar oqimi bu holning kelgusidagi salbiy oqibatlarini anglagan holda o‘z harakatlari, asarlari bilan allaqachon unutilgan asl qadriyatlarimizni tiklashga, uni xalqimiz orasida qayta keng yoyishga harakat qildilar. Biroq mustabit tuzum ularning hatrakatiga ko‘plab cheklovlar qo‘yib, o‘z g‘oya-qarashlarini yoyishga urindi. Buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan sharqona qarashlar, qadrlash mezonlarini sarobga aylantirish uchun qilingan yuz yildan ortiq urinishlarning oqibatlari haligacha sezilib turadi. O‘tgan asrning 60-yillarida qadriyaviy mavzular, qadriyatlar muammosi mutaxassislar tomonidan tahlil qilina boshlanganiga qaramasdan, sobiq ittifoqda aksiologiya nomi bilan birorta ham ilmiy adabiyot chop etilmaganligi, bu mavzu falsafa darsliklarida 90-yillargacha alohida tarzda o‘z o‘rniga ega bo‘lmaganligi, hatto oliy o‘quv yurtlardagi ijtimoiy mutaxassislar tayyorlanadigan gumanitar ta’lim yo‘nalishlarida ham bu sohaga oid maxsus bilimlar berilmaganligi mazkur tushunchaning ommalashishiga qo‘yilgan to‘siq bo‘lgan.

Mustaqillik yillariga kelibgina istiqlol tufayli ushbu sohada ham ijobiy siljishlar boshlandi, qadriyatlar to‘g‘risidagi qarashlarimiz shitob bilan o‘zgardi. Sobiq Ittifoq davrida ulug‘langan partiyaviy-sinfiy qadriyatlar bugungi kun talablariga javob bera olmay, o‘tgan o‘n yilliklardan iborat davr mobaynida tarix sahifalari bilan birga yopilib ketdi.

Istiqlol yillarida mamlakatimizda qadriyat mavzusiga umuminsoniy tamoyillar asosida yondashish shakllandi, asrlar davomida shakllangan sharqona, xususan, o‘zbekona qadriyatlarni qayta tiklash hamda zamonaviy talablar darajasida takomillashtirish kun tartibiga qo‘yildi. Mustaqillik va vatanparvarlik istiqlol davrining eng asosiy qadriyatlaridan biri sifatida belgilandi. Zero, mustaqil bo‘lmagan xalqning qadriyatlar tizimi hech qachon to‘kis bo‘lmaydi. Mustamlaka mamlakatning ma’naviy hayotida mustamlakachilarning qadriyatlari ustuvor bo‘lishini tarix ko‘p bora isbotlagan.

Xulosa qilib aytganda, insoniyat uchun moddiy, ma’naviy-madaniy qiymatga ega tushunchalar uchun umumiyl nom sifatida qabul qilingan qadriyat va uni ilmiy aspektida o‘rganuvchi soha – aksiologiya so‘zining tarixini bilish uning asl mohiyatini anglashga va muloqot jarayonida o‘rinli qo‘llashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –T.: O‘zbekiston, 2018.
2. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi. –T.: “Akademika” nashriyoti, 2011.
3. Xodjayev B.X. Pedagogik aksiologiya. O‘quv qo‘llanma. -T.: Fan va texnologiya, 2011. –3 b.
4. Falsafa. Qomusiy lug‘at. –T.: Sharq, 2004.
5. Туленов Ж. Миллий қадриятлар ва ижтимоий тарақиёт. –Т.: Ўзбекистон, 1999. – Б. 8.
6. Xan V.S. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya) // Falsafa: Darslik / [M.A. Ahmedova, V.S.Xan, D.A.Alimova va boshq.]; O‘zR Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006, -Б. 434.